O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O’quv ishlari bo’yicha prorektor
professor S.Boboyev
2025 yil “04” 07

Ro‘yxatga olindi: № BD- *60810400- 1.10*
2025 yil “04” 07

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800 000	- Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta’lim sohasi:	810 000	- Qishloq xo‘jaligi
Ta’lim yo‘nalishi:	60810400	- Agronomiya

Toshkent - 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
HFXB2304	2025-2026	3	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Tanlov	O‘zbek/rus		4

1.	**Fanning nomi** Tanlov	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	Hayot faoliyati xavfsizligi	**48**	**72**	**120**

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad - bo‘lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, hususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo‘qotish uslublarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy texnogen va ekologik tusdagi favqulotda vaziyatlarda aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalanishga, hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalarini o‘rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - insonning hayot faoliyatida yuzaga keladigan xavflarni o‘rganish, ularni identifikatsiyalash, ishlab chiqarishda muqobil muhitni yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oluvchi tadbirlar, shuningdek, tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalanish usullariga o‘rgatish, shikastlangan o‘choqlarda aholini qutqarish va tiklov ishlarini o‘tkazish, Yong‘in ga qarshi xavfsizlik choralarini ko‘rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko‘nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular (modullar) kiradi:

1-mavzu. Kirish. Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining kelib chiqish zaruriyati uning ijtimoiy-iqtisodiy axamiyati va mazmuni. Fanning maqsadi va vazifasi. Xavflarning asosiy tasnifi va ular haqida tushuncha. Xayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi, xavflarning kelib chiqish manbalari, texnogen, ekologik xavf va diniy tahdidlarning asosiy manbalari, xavfliliklarni sifat va soni jihatidan taxlili, hodisa va voqealar daraxti, tavakkal tushunchasi, «xavfsizlik-odam-yashash muhiti» tizimining xususiyati, texnogen avariya va katastrofalar. Xavfsizlikka erishish xususiyatlari.

2-mavzu. Hayot faoliyati xavfsizligining xuquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Mexnat kodeksi”, “Mexnatni muxofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun (yangi tahrirdagi), “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun, “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonun, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun, “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonun, “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun, “CHiqindilar to‘g‘risida”gi qonun, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun, “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun, “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi qonun, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun, “Iqlim

CamScanner yordamida skanerlangan

o'zgarishi bo'yicha Parij konvensiyasi", "Zaharli kimyoviy va boshqa toksik moddalarni ko'mish hamda maxsus poligonlarni qo'riqlash va saqlash tartibi to'g'risida nizom". Mexnat xavfsizligi to'g'risida standartlar tizimi. Ayollar va o'smirlar mexnatini muxofaza qilish. Mexnatni muxofaza qilish qonunlariga roiya qilishda davlat, muassasa va jamoat nazorati, uni buzuvchi shaxslar javobgarligi.

3-mavzu. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida mehnat muhofazasi ishlarini tashkil etish. Ergonomika va xavfsizlikni boshqarish.

Mexnat xavfsizligi ishlarini tashkil etishdagi mutaxassis va raxbar shaxslarining xuquq va vazifalari, qishloq xo'jalik xodimlarini davolash va sog'ligini yaxshilash tadbirlari, sut va boshqa maxsulotlar berish tartibi. Mexnat xavfsizligi bo'yicha davlat, mamuriy va jamoat nazorati. Mexnat xavfsizligi va sharoiti bo'yicha xisobot berish tartibi. Mexnat xavfsizligi talablarga mos ravishda qishloq xo'jaligidagi bo'linma, bino va ish joylarini pasportlashtirishni tashkil etish tartibi. Xavfsizligini o'qitish va targ'ibot tashviqoti.Baxtsiz xodisalar va kasbiy kasallanishlar bo'yicha xar tomonlama tekshiruv o'tkazish, xisobga olish va xisobot berish. Xo'jalik mutaxassislarini mexnat xavfsizligi bo'yicha malakasini oshirish. Kurslarda o'qitishni tashkil etish. Mexnat xavfsizligi targ'iboti va tashviqot qilish. Xona va burchaklarni tashkil etish. Ishlab chiqarishdagi umumiy xavfsizliklar. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qayta ishlash va mexanika korxonalarida xavfsizlik masalalari.

Ergonomikaning maqsad va vazifasi, asosiy tushunchalar, dizayn, insonning harakatlari, ombor texnikalari. Agroinjeneriya ergonomikasi.

4-mavzu. Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi asoslari. Ishlab chiqarishda odam organizmiga xavfli va zararli omillarni ta'siri.

Ishlab chiqarish sanitariyasi va gigienasi, uning maqsadi va vazifalari. Sanitar me'yorlar va qoidalar, ularning qisqacha mazmuni. Ishlab chiqarishga ob-havo muhitining ta'siri "issiqlash" va "sovuqlash" holatlari Ishlab chiqarish mikroiqlimining gigienik me'yorlari ularning inson organizmiga ta'siri. Ishlab chiqarishdagi kasb kasalliklari va shikastlanishlar, ularning kelib chiqish sabablari, oldini olish chora tadbirlari. Ishlab chiqarishda odam organizmiga xavfli va zararli omillarni ta'siri.

5-mavzu. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi.

Mashina va mexanizmlarning xavfli doiralari. Qishloq xo'jaligida bajariladigan asosiy ishlarida texnika xavfsizlik choralari. Xavfsizlikni taminlovchi texnikaviy vositalar va ularga bo'lgan umumiy talablar. Ogohlantiruvchi plakatlar va yozuvlar. Xayvonlarni boqishda xavfsizlik choralari. Dag'al em-xashak tayyorlashda, va silos bostirishda texnik xavfsizlik talablari. Mashinalarga servis xizmat ko'rsatishda ularni ishga tayyorlashda xavfsizlik talablari. Tuproqqa ishlov berish, ekin ekish va o'tqazish mashinalarini ishlatishda xavfsizlik choralari. O'g'itlarni sepish va qator oralariga ishlov berish mashinalarida ishlaganda xavfsizlik talablari. O'simliklarga kimyoviy ishlov berishda va paxtani yig'ib-terib olish texnikalarida ishlaganda xavfsizlik choralari. Transport ishlarini bajarishda xavfsizlik qoidalari. YUk ko'tarish va tushirish texnikalarida ishlaganda xavfsizlik choralari. Transportda yuklarni tashish, tushirish va yuklashda mexnat xavfsizligi. Xizmat qiluvchi ishchilarga bo'lgan talablar. Transport vositalarida odam va hayvonlarni tashishda texnika xavfsizlik choralari.

6-mavzu. Xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalar

Xavfsizlikni ta'minlash vositalari, qishloq xo'jaligi mashinasi, agregati, mexanizmi va uskunalari baxtsiz hodisalarning oldini oladigan zamonaviy himoya

CamScanner yordamida skanerlangan

vositalari bilan jihozlanishi. Mehnat xavfsizligini ta'minlovchi to'siq, tormoz, blokirovka, saqlash qurilmalari, signalizatsiya, shaxsiy himoyalanish vositalari va ularning yaxshi ishlashini nazorat qilish. Integral xavfsizlik yondashuvi. Yo'l harakati xavfsizligi. Faol, passiv va profilaktika vositalarining xavfsizligi ta'rifi. Baxtsiz hodisalar mexanikasi va ta'sirning fizik tamoyillari. Inson biomexanikasi. Baxtsiz hodisalarni tadqiq qilish vazifalari, baxtsiz hodisalar statistikasi

7-mavzu. Katta energiya va bosim bilan ishlovchi uskuna hamda qurilmalarni ishlatishdagi xavfsizlik talablari.

Katta energiya va bosim bilan ishlovchi uskuna, qurilma, idishlarning turlari va guruhlanishi. Katta energiya va bosim bilan ishlovchi uskunalar, qurilmalar va idishlarni xavfsiz ishlatishning me'yoriy asoslari. Katta energiya va bosim ostidagi uskuna, qurilma va idishlarni ishlatganda yuzaga keladigan xavfli holatlar. Bug' qozonlari va ozuqa bug'lagichlardan foydalanishda xavfsizlik talablari

8-mavzu. Elektr bilan ishlaganda xavfsizlik choralari.

Asosiy tushunchalar, elektr tokini odam va hayvonlarga ta'siri, elektr tokidan jaroxatlanish sabablari va uning oldini olish. Binolarning elektr toki xavfsizligi bo'yicha tasnifi. Elektr toki ta'siri tufayli kelib chiqadigan jarohatdan himoyalanish. Elektr tokidan himoyalanish tadbirlari. Elektr toki bor yo'qligini tekshiruvchi asboblar va ogohlantiruvchi avtomatik signalizatsiya. Kichik kuchlanishdan himoyalanish, ikkilanma izolyasiyalash. Statik va atmosfera elektr toki, undan himoyalanish. Xavo elektr uzatma tarmoqlaridan foydalanishga qo'yiladigan xavfsizlik qoidalari. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan ishlarni bajarishda qo'yiladigan elektr xavfsizlik talablari. Elektrdan himoyalanish vositalari. Muqobil manbalardan elektr energiyasi olishda xavfsizlik tadbirlari.

9-mavzu. Yong'in xavfsizligi choralari.

Umumiy tushunchalar. Yong'in ofati, turlari, uning kelib chiqish sabablari va oldini olish chora-tadbirlari, yonish fazalari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyot ob'ektlari va qurilish materiallarining Yong'in ga bardoshlik darajalari. Elektr qurilmalarida sodir bo'ladigan Yong'in ga qarshi qo'yiladigan talablar. O't o'chirish moddalari va ularning xossalari. Yong'in ni o'chiruvchi jihozlar. Yong'in dan xabar bergichlar. Portlash xodisasi, uning xususiyatlari va unga qarshi chora-tadbirlar. O't o'chirish texnikalari. O't o'chirishda suv ta'minoti. O't o'chirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Qishloq xo'jaligida Yong'inlarni o'chirishning o'ziga xos xususiyatlari. Yong'in xavfsizligi talablarini buzganlik uchun javobgarlik.

10-mavzu. Favqulodda vaziyatlarda fuqoro muhofazasi. Ularning turlari va xususiyatlari.

Favqulodda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Asosiy tushunchalar, favkulodda xolatlarning tasnifi. Tabiiy hodisalar, apokalipsis, texnogen avariyalar, katastrofalarning sabab va bosqichlari, tabiiy va texnogen ofatlarni yuzaga keltiruvchi omillar va ularning oldini olish, ulardan himoyalanish asoslari. Markaziy Osiyo hududlarida kuzatiladigan tabiiy ofatlarning turlari, kelib chiqish sabablari, xususiyatlari, ularni oldindan ko'rsatadigan belgilari, shikastlash darajalari. O'tmishdagi yirik baxtsiz hodisalarning sabablarini tushunish. Yangi baxtsiz hodisalar / hodisalarning sababiy tahlilini amalga oshirishni o'rganish. Xavf tahlilini o'tkazish. Xavfsizlik uchun muhim tizimlar va loyihalarni ishlatish va boshqarish. Har bir katastrofik o'choqda olib boriladigan xavfsizlikni ta'minlash tadbirlari kompleksi. Ommaviy qirg'in qurollarining turlari va ularning ta'siridan kelib chiqadigan zararlar. Radioaktiv zaxarlanish manbalari, ionlovchi nurlanishdan saqlanish, zarb to'lqinlari,

CamScanner yordamida skanerlangan

yorug'lik nurlanishi va elektromagnit impulsi. Kimyoviy, bakteriologik qurollar, zararli viruslar hamda ularni tirik organizm va o'simliklarga tasiri.

11-mavzu. Ishlab chiqarish jarayonlaridan zararlangan va shikastlangan kishilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari.

Talofat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari. «Halokatlar tibbiyoti» xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari. Jaroxatlanganlarga yordam ko'rsatishdan oldin qo'yiladigan talablar. YUrak-o'pka reanimatsiyasi, jarohatlar, tomirlardan qon ketish turlari va uni bog'lash usullari. To'qimalar kuyganda, elektr tokidan jarohatlanganda, suyak singanda, sovuq urganda, oftob urganda, odam suvga cho'kkanda, turli zaharlovchi moddalar bilan zaharlanganda hamda yuqumli kasalliklar tarqalganda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam muolajalari. Bemorni transportirovka qilish. Yuqumli kasalliklar turlari, xususiyati va ularga qarshi chora tadbirlar. Turli harakterdagi favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etilish. Xavfsizlik va atrof-muhit, yong'inning oldini olish va birinchi yordam. Birinchi yordam va yong'in xavfsizligi bo'yicha nazariy. Hayotiy tajribalar jismoniy va ruhiy salomatlikka qanday ta'sir qilishini tushunish va mavjud yordam xizmatlarini bilish.

12-mavzu. Aholini diniy ekstremizm, terrorizm va boshqa tahdidlardan himoya qilish asoslari.

Terrorizm tushunchasi, uning salbiy illatlari va amalga oshirish uslublari. Terrorizmning iqtisodiyot tarmoqlari va aholi uchun xavfli xususiyatlari. Xalqaro terrorizm va unga qarshi olib boriladigan harakatlar. O'zbekiston Respublikasining 31 avgust 2000 yildagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonunining mohiyati. Yoshlarni turli diniy ekstremistik va terroristik g'oyalardan asrash. Diniy ekstremizm, terrorizm, jamiyatda beqarorlik kelib chiqishi va aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'onishi, zo'ravonlikning kelib chiqishi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mexnat xavfsizligi to'g'risidagi yo'riqnomani o'rganish
2. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va N-1 shaklni rasmiylashtirish
3. Shaxsiy himoya vositalari majmuasi yordamida ularni tanlash va buyurtma berish. Birinchi yordam va yong'in xavfsizligi bo'yicha nazariy va amaliy asoslari.
4. O't o'chirish vositalari va texnikalarini o'rganish
5. Zilzila va boshqa favqulodda vaziyatlarda aholining harakatini o'rganish.
6. Elektrxavfsizligi stendida xavfsizlik talablarini o'rganish.
7. Baxtsiz hodisa ro'y berganda birinchi tibbiy va reanimatsiya yordam ko'rsatish usullarini katta odam mulyaji maxsus jamlanmasida o'rganish.
8. Ish joylarida mikroiqlim ko'rsatkichlarini elektron psixrometr, termometr va anemometr bilan aniqlashni o'rganish.
9. Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarini yoritilganlik darajasini elektron lyuksmetr bilan tekshirishni o'rganish.
10. Gaz analizatori yordamida tutun va chiqindi gazlarni konsentratsiyasini aniqlashni o'rganish.
11. Portativ radiatsiya dozimetri bilan radioaktiv zararlanishni aniqlashni o'rganish.
12. Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarida shovqin o'lchagich yordamida shovqin darajasini aniqlashni o'rganish.

CamScanner yordamida skanerlangan

	IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. O'zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida (yangi taxrirdagi) qonuni. 2. O'zbekiston Respublikasining fuqoro muxofazasi to'g'risidagi qonuni. 3. Qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlatish hamda ta'mirlash jarayonida xavfsizlikni ta'minlash. 4. Ayollar va o'smirlar mehnatini muhofazasi. 5. Inson organizmiga shovqinning ta'siri va uni kamaytirish vositalari. 6. Ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli chang va gazlardan zaxarlanishni oldini olish chora- tadbirlari. 7. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida avariyalar va boshqa tabiiy ofatlar oqibatini tugatish 8. Avtomatik qurilmalardan foydalanishda xavfsizlik chora-tadbirlari 9. O'zbekiston Respublikasining "CHiqindilar to'g'risida"gi qonuni 10. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni 11. Korxonada qo'llaniladigan texnologik uskuna moslama vositalarni xavfsizligini ta'minlash choralari. 12. Korxonalarni yong'in, portlashga xavfliligi jihatidan turlari va ogohlantirish choralari. Fanni o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliyotdagi amaliy masalalarni echishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalarga referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	**V.Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - fan va ilg'or ishlab chiqarish yutuqlari, O'zbekiston Respublikasining mexnatni muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi qonunlari, standartlar sistemasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, mexnat gigienasi, fiziologiyasi va psixologiyasi, zararli moddalar xaqida ***tassavurga ega bo'lishi,*** - Ishlab chiqarishda mexnat muxofazasi ishlarini tashkil qila bilish, elektr tokini odam va qishloq xo'jalik xayvonlari organizmga ta'siri, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda texnika va elektr xavfsizligi, mexanizatsiyalashgan dala ishlarini bajarishda xavfsizlik choralari, yong'in xavfsizligi asoslarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** - ishlab chiqarishda mexnat muxofazasi ishlarini tashkil qila bilish, ish sharoitlarini o'rgangan holda ma'lumotlar berish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** - Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda texnika, elektr va yong'in xavfsizligining asoslarini bilishi va qo'llay olishi kerak, yadroviy, kimyoviy va biologik qurollar va favqulodda xolatlarda insonlar xayotini muxofaza qilish bo'yicha ***malakalarga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • guruhlarda ishlash;

CamScanner yordamida skanerlangan

	• taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • interfaol ta'lim metodlari.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni yozma, og'zaki, test va boshqa usullarda olish mumkin.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Mark A. Friend and James P. Kohn. Fundamentals of Occupational Safety and Health. Fourth Edition. Lanham, Maryland • Toronto • Plymouth, UK. - 2007. - 506 page. 2. E.I.Ibragimov, S.Gazinazarova, O.R.Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b. 3. N.X. Razzoqov, Sh.A. Mamasov. Hayot faoliyati xavfsizligi -T .: «Fan va texnologiya», 2019, 288 bet. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023 y. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezidentning 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va vazirlar mahkamasi agrar sektor bo'yicha qabul qilgan qarorlari. 5. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr. 6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi 2023 yil 30 aprel. 7. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2000 yil 20 iyun 8. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, -T.: 1997. **Axborot manbaalari** 1.www.gov.uz www.lex.uz www.bilim.uz 2. www.ziyo.net.uz www.mintrud.uz www.minzdrav.uz 3. www.mchs.gov.uz www.ohranatruda.ru 4.https://ocw.mit.edu/courses/16-863j-system-safety-spring-2016/pages/syllabus/ 5.https://www.ntnu.edu/studies/courses/HMS0001#tab=omEmnet 6.https://www.tu.berlin/en/kfz/studies-and-teaching/teaching-offers/module-list-master/accident-mechanics-and-automotive-safety
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2025 - yil "04" 07 dagi 13 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun ma'sullar:** T.N.Xalmuradov - TDAU, "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va

CamScanner yordamida skanerlangan

	avtomatlashtirish" kafedrasi dotsenti, p.f.n.
9.	**Taqrizchilar:** T.Haydarov - TIQXMMI "MTU", "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasi dotsent, texnika fanlari nomzodi M.Allanazarov - TOSHDAU, "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

O'QUV DASTURLARNI TOP-300 TALIK REYTINGGA KIRGAN UNIVERSITETLAR TAJRIBASIDA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HOLATI

№	OTM nomi	QS	THE	TOP-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimcha mavzular	Mazkur dasturdagi mavzu nomi	Havolalar
1	Massachusetts Institute of Technology (MIT)	1	3	Preventing future accidents requires knowing why accidents in the past have occurred. We will look at well-known accidents in the past to understand the common causal factors. Kelajakdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish o'tmishdagi baxtsiz hodisalar nima uchun sodir bo'lganligini bilishni talab qiladi. Umumiy sabab omillarini tushunish uchun o'tmishdagi taniqli baxtsiz hodisalarni ko'rib chiqamiz.	**10-mavzu.** Favqulodda vaziyatlarda fuqoro muhofazasi. Ularning turlari va xususiyatlari.	System Safety https://ocw.mit.edu/courses/16-863j-system-safety-spring-2016/pages/syllabus/
2	NTNU - Norwegian University of Science and Technology	267	101-125	Insight into health, safety, and environment (HSE); basic HSE knowledge, safety in the laboratory and field, as well as training in first aid and fire safety; and insight into physical and mental health, focusing on health, the impact of life experiences, student support services, and financial planning. Salomatlik, xavfsizlik va atrof-muhit (HSE) haqida tushuncha; HSE bo'yicha asosiy bilimlar, laboratoriya va sohada xavfsizlik, shuningdek, birinchi yordam va yong'in xavfsizligi bo'yicha treninglar; va jismoniy va ruhiy salomatlik haqida tushuncha, sog'likka, hayotiy tajribalarning ta'siriga, talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlariga va moliyaviy rejalashtirishga e'tibor qaratish.	**11-mavzu.** Ishlab chiqarish jarayonlarida n zararlangan va shikastlangan kishilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari.	Health, Safety and Environment (HSE) course for 1st year students https://www.ntnu.edu/studies/courses/HMS0001#tab=omEmnet
3	Technische Universität Berlin (TU Berlin)	145	172	This course teaches the fundamentals of accident research, accident mechanics and human biomechanics. Ushbu kurs baxtsiz hodisalarni o'rganish, baxtsiz hodisalar mexanikasi va inson biomexanikasining asoslarini o'rgatadi.	**6-mavzu.** Xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalar	Accident mechanics and motor vehicle safety https://www.tu.berlin/en/kfz/studies-and-teaching/teaching-offers/module-list-master/accident-mechanics-and-automotive-safety

CamScanner yordamida skanerlangan